QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.pedm.v08.i10.016

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI

Shodmonqulova Dildora Toshpo‘latovna
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi
II-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri, uning ijobiy imkoniyatlari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellektdan oqilona foydalanish, yoshlarda mustaqil fikrlash, axborot madaniyati va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, yoshlar, ma’naviyat, axborot texnologiyalari, raqamli muhit, axborot madaniyati, milliy qadriyatlar, mustaqil fikrlash.

ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЁЖИ

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние технологий искусственного интеллекта на духовность молодёжи, раскрываются их положительные возможности и потенциальные негативные аспекты. Особое внимание уделяется вопросам рационального использования искусственного интеллекта, формирования у молодёжи самостоятельного мышления, информационной культуры и духовно-нравственных ценностей.

Ключевые слова: искусственный интеллект, молодёжь, духовность, информационные технологии, цифровая среда, информационная культура, национальные ценности, самостоятельное мышление.

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE SPIRITUALITY OF YOUNG PEOPLE

Abstract: This article examines the impact of artificial intelligence technologies on the spirituality of young people, highlighting their positive potential and possible negative implications. Particular attention is paid to the responsible use of artificial intelligence and the development of independent thinking, information culture, and spiritual and moral values among young people.

Keywords: artificial intelligence, young people, spirituality, information technologies, digital environment, information culture, national values, independent thinking.

Kirish. Yer kurrasida tobora jadallashib borayotgan globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va sun’iy intellekt imkoniyatlarining kengayishi tufayli insoniyat hayotining barcha sohalarida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim, madaniyat, ijtimoiy munosabatlar va axborot almashinuvi jarayonlariga chuqur kirib borishi yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, ma’naviy qadriyatlari va ijtimoiy faolligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur jarayon bir tomondan yoshlarning bilim olish, mustaqil fikrlash va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Boshqa tomondan esa, sun’iy intellekt vositalaridan nazoratsiz foydalanish, yolg‘on axborotlarning tarqalishi, ma’naviy qadriyatlarning zaiflashuvi va yoshlarning axborotga qaramligi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Jahon ekspertlari xulosalariga ko‘ra, bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiy va texnologik taraqqiyotga, balki jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hayotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlarning raqamli muhitda faol ishtirok etishi, sun’iy intellekt asosidagi axborot manbalaridan foydalanishi va virtual muloqotga tobora ko‘proq murojaat qilishi ularning ma’naviy kamoloti, axloqiy qarashlari hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini o‘zgartirmoqda. Shu bois, sun’iy intellekt texnologiyalarining yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini ilmiy jihatdan o‘rganish, uning ijobiy imkoniyatlari va salbiy oqibatlarini aniqlash hamda mazkur jarayonni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan tartibga solish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sun’iy intellekt texnologiyalarining yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha dunyoning bir qator xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va tahlil markazlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (UNESCO), BMTning Bolalar jamg‘armasi (UNICEF), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda boshqa xalqaro tuzilmalar faoliyatida sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish, yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va inson manfaatlarini himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo‘nalishlarda sun’iy intellektning ta’lim va tarbiya jarayoniga ta’siri, yoshlarning axborot iste’moli madaniyati, raqamli muhitda axloqiy me’yorlarga rioya etishi hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda sun’iy intellekt texnologiyalarining yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida o‘rganish, ularning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Muxokama va natija. O‘zbekiston ham dunyo mamlakatlari qatori globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarini boshidan kechirayotgan bir paytda, sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyat hayotiga keng joriy etilishi yoshlar dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlariga tobora sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlarning internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar va sun’iy intellektga asoslangan vositalardan foydalanishi ularning bilim olish, axborotni qabul qilish, voqelikni anglash va mustaqil qarorlar

qabul qilish jarayonlarini o‘zgartirmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt vositasida yaratilayotgan noto‘g‘ri va manipulyativ axborotlar, soxta tasvir va videolar, ma’naviy qadriyatlarga zid mazmunlarning tarqalishi yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu borada davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan globallashuv sharoitida milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdidlarning kuchayib borayotgani, yoshlar ongiga turli zararli g‘oyalar singdirilayotganiga alohida e’tibor qaratilgan[22]. Mazkur holatlar yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish, ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlash va raqamli muhitda mas’uliyatli faoliyat yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Insoniyat taraqqiyotining barcha tarixiy bosqichlarida ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi jamiyat hayotining turli sohalariga, xususan, insonning dunyoqarashi, tafakkuri, axloqiy qarashlari va ma’naviy kamolotiga bevosita ta’sir ko‘rsatib kelgan. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyat oldida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, muayyan ijtimoiy-ma’naviy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlarning ma’naviy dunyosi, axloqiy qadriyatlari, mustaqil fikrlash qobiliyati va ijtimoiy munosabatlarining shakllanishida sun’iy intellekt texnologiyalarining tutgan o‘rni alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. O‘tmishga nazar tashlar ekanmiz, insoniyatning har bir tarixiy davrida yangi texnologik kashfiyotlar jamiyatning ma’naviy hayotiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatganini kuzatish mumkin. Bugungi kunda esa sun’iy intellekt texnologiyalari insonning axborot olish, bilimlarni o‘zlashtirish, fikrlash, muloqot qilish va qaror qabul qilish jarayonlariga tobora chuqur kirib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, sun’iy intellekt texnologiyalarining yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki yoshlar ma’naviyatining shakllanishi nafaqat an’anaviy ijtimoiy institutlar, balki raqamli axborot muhiti va unda faoliyat yuritayotgan intellektual texnologiyalar bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Shu ma’noda, “sun’iy intellekt” tushunchasining mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u insonning aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan o‘rganish, tahlil qilish, muammolarni hal etish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish kabi jarayonlarni kompyuter tizimlari hamda dasturiy vositalar yordamida amalga oshirishga qaratilgan texnologiyalar majmuini anglatadi. Sun’iy intellektning nazariy asoslarini o‘rganishda amerikalik olimlar Stuart Russell Peter Norvig tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy qarashlar muhim ahamiyatga ega. Ularning “Artificial Intelligence: A Modern Approach” nomli asarida sun’iy intellekt aqlli agentlar, muammolarni hal qilish, bilimlarni ifodalash, mashinaviy o‘rganish va qaror qabul qilish jarayonlari bilan bog‘liq holda izohlab, sun’iy intellektni inson faoliyatining turli sohalarida qo‘llaniladigan intellektual tizimlar sifatida tushunishga urg‘u beradi[23]. Demak, sun’iy intellekt texnologiyalarining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri ularning faqat axborot olish yoki bilimlarni

[22] Ш.М.Мирзиёев. “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари” юзасидан 2021 йил 19 январдаги видеоселектор йиғилиши. https://qalampir.uz/news/prezident-ma-naviyat

[23] Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – 4th ed. – Hoboken: Pearson, 2021. – 1115 p. URL: https://search.worldcat.org/title/1157132061

o‘zlashtirish imkoniyatlari bilan cheklanmaydi. Ushbu texnologiyalar yoshlarning fikrlash usuli, axborotni baholash mezonlari, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va axloqiy munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining inson va jamiyat hayotiga ta’sirini axloqiy ta’sirini tadqiq etgan italyan faylasufi Luciano Floridi o‘zining “The Ethics of Artificial Intelligence: Principles, Challenges, and Opportunities” nomli asarida sun’iy intellekt bilan bog‘liq axloqiy tamoyillar, muammolar va imkoniyatlarni ochiqlab, sun’iy intellekt texnologiyalarini inson manfaatlari, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘un holda rivojlantirish zarurligini ta’klidlaydi[24]. Sun’iy intellektning insonlararo munosabatlarga ta’sirini o‘rgangan amerikalik olima Sherry Turkle shunday qayd etadi. “Yuzma-yuz muloqot insonning o‘zini anglash, boshqalarni tinglash, hamdardlik va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi”[25]. Demak, sun’iy intellekt bilan muloqot qilishning kengayishi yoshlarning real ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, insonlar bilan bevosita muloqot qilish, o‘zaro hurmat, hamdardlik, mehr-oqibat va ijtimoiy mas’uliyat kabi ma’naviy fazilatlarning shakllanishida raqamli vositalardan foydalanish me’yorlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bunda texnologiyalarning o‘zini salbiy hodisa sifatida baholash emas, balki ulardan foydalanish shakli va maqsadining yoshlar ma’naviy kamolotiga ta’sirini aniqlash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari inson tomonidan yaratilgan algoritmlar, ma’lumotlar bazalari va hisoblash imkoniyatlariga tayangan holda muayyan vazifalarni bajaradi. Biroq uning inson tafakkuriga o‘xshash natijalarni hosil qilishi ushbu texnologiyalarning inson ongi, axloqiy mas’uliyat yoki ma’naviy qadriyatlarga ega ekanligini anglatmaydi. Shu jihatdan, sun’iy intellektning yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini o‘rganishda texnologik imkoniyatlar bilan insonning ma’naviy-axloqiy mohiyatini farqlash muhimdir. Sun’iy intellekt texnologiyalarining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri masalasini tahlil etishda, avvalo, ma’naviyat tushunchasining mazmuniga to‘xtalish zarur. Ma’naviyat insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari, e’tiqodi, qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy mas’uliyati va hayotiy pozitsiyasini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa hisoblanadi. Yoshlar ma’naviyatining shakllanishi esa oila, ta’lim muassasalari, ijtimoiy muhit, madaniy meros va axborot makonining o‘zaro ta’siri natijasida kechadigan uzluksiz jarayondir. Zamonaviy sharoitda sun’iy intellekt texnologiyalari mazkur jarayonning yangi tarkibiy omiliga aylanib, yoshlarning bilim olish, axborotni idrok etish, qadriyatlarni anglash va ijtimoiy voqelikka munosabat bildirish usullarini o‘zgartirmoqda.

Mazkur masalaning nazariy asoslarini o‘rganishda xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarga murojaat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, sun’iy intellekt sohasining shakllanishi va rivojlanishi XX asrning ikkinchi yarmida kompyuter texnologiyalarining taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, 1956-yilda Dartmut konferensiyasida “sun’iy intellekt” atamasining ilmiy muomalaga kiritilishi ushbu yo‘nalish rivojida muhim tarixiy bosqich sifatida

[24] Floridi L. The Ethics of Artificial Intelligence: Principles, Challenges, and Opportunities. – Oxford: Oxford University Press, 2023. – URL: https://academic.oup.com/book/46748

[25] Turkle S. Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age. – New York: Penguin Press, 2015. – 352 p. URL: https://www.penguinrandomhouse.com/books/313732/reclaiming-conversation-by-sherry-turkle/

e’tirof etiladi. Keyingi davrlarda mashinaviy o‘rganish, neyron tarmoqlar, tabiiy tilni qayta ishlash va generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ushbu tizimlarning inson hayotidagi ishtirokini yanada kengaytirdi. Ayniqsa, generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining paydo bo‘lishi yoshlarning axborot bilan ishlash, bilimlarni o‘zlashtirish va ijodiy faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Biroq ushbu texnologiyalardan foydalanish jarayonida tayyor axborot va xulosalarga ortiqcha tayanish, mustaqil fikrlashga bo‘lgan ehtiyojning susayishi, yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma’lumotlarni haqiqiy deb qabul qilish kabi muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Shu bois sun’iy intellekt texnologiyalarining yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini faqat texnologik taraqqiyot nuqtayi nazaridan emas, balki ijtimoiy, axloqiy, pedagogik va ma’naviy mezonlar asosida ham tahlil etish zarur.

Xulosa. Fikrimizcha, sun’iy intellekt texnologiyalarining yoshlar ma’naviyatiga ta’siri – bu raqamli axborot muhitida faoliyat yurituvchi intellektual tizimlar bilan o‘zaro munosabat jarayonida yoshlarning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari, e’tiqodi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy mas’uliyati va ma’naviy-ruhiy holatida yuzaga keladigan ijobiy yoki salbiy o‘zgarishlarni ifodalovchi murakkab ijtimoiy-ma’naviy hodisadir. Mazkur ta’sir sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning maqsadi, mazmuni, intensivligi, yoshlarning axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash darajasi hamda ularni ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bu borada YUNESKOning 2021-yil 23-noyabrda qabul qilingan “Sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiyasi”ni esga olish joiz deb bildik. Ushbu hujjatda sun’iy intellektning jamiyat, inson hayoti, tafakkuri, o‘zaro munosabatlari, qaror qabul qilish jarayonlari, ta’lim va madaniyatga ijobiy hamda salbiy ta’sirlari e’tirof etilgan[26]. sun’iy intellekt texnologiyalarining yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini o‘rganishda inson manfaatlari, axloqiy qadriyatlar, shaxsiy daxlsizlik, adolat va mas’uliyat tamoyillariga alohida e’tibor qaratish lozim. Chunki yoshlarning ma’naviy dunyosi shakllanayotgan davrda raqamli muhitda uchraydigan axborotlar, algoritmik tavsiyalar va sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan mazmunlar ularning dunyoqarashi hamda qadriyatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining yoshlar ma’naviyatiga ta’sirini o‘rganish ushbu texnologiyalarning imkoniyatlari va ehtimoliy xavflarini aniqlash, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi omillarni belgilash hamda raqamli muhitda ma’naviy barqarorlikni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur jarayonda sun’iy intellektdan oqilona foydalanish, yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni mustahkamlash hamda axborotdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ш.М.Мирзиёев. “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари”

[26] UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. – Paris: UNESCO, 2021. – URL: https://www.unesco.org/en/legal-affairs/recommendation-ethics-artificial-intelligence (Murojaat vaqti: 05.10.2026)

юзасидан 2021 йил 19 январдаги видеоселектор йиғилиши. https://qalampir.uz/news/prezident-ma-naviyat

2. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – 4th ed. – Hoboken: Pearson, 2021. – 1115 p.

3. Floridi L. The Ethics of Artificial Intelligence: Principles, Challenges, and Opportunities. – Oxford: Oxford University Press, 2023.

4. Turkle S. Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age. – New York: Penguin Press, 2015. – 352 p.

5. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. – Paris: UNESCO, 2021. – URL: https://www.unesco.org/en/legal-affairs/recommendation-ethics-artificial-intelligence (Murojaat vaqti: 05.10.2026)